



To'raqulova Nigina Sunnatillayevna

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi niginatorayeva.12@icloud.com +99850883188

Annotatsiya: *Ushbu matnda Alisher Navoiy asarlarini boshqa tillarga tarjima qilishdagi asosiy muammolar ko'rib chiqiladi. Shoir qo'llagan badiiy o'xshatishlar va o'sha davrga xos madaniy tushunchalarni xorijiy kitoblarga yetkazib berishdagi qiyinchiliklar tahlil qilingan. Asosiy e'tibor tarjimada milliy ruhni saqlab qolish va muallif uslubini to'g'ri ifodalashga qaratilgan. Shuningdek, mavjud tarjimalar o'rganilib, ishni sifatli bajarish bo'yicha foydali tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'zlar: *Alisher Navoiy, badiiy tarjima, milliy ruh, tarjimon muammolari, badiiy uslub, majoz, madaniyatlar aro muloqot.*

Key words: *Alisher Navoi, literary translation, national colour, translation problems, artistic style, metaphor, intercultural communication.*

KIRISH

Alisher Navoiy ijodi nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun dunyo madaniyatining bebaho xazinasini hisoblanadi. Bugungi kunda shoir asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va dunyo kitobxonlariga yetkazish eng dolzarb vazifalardan biridir. Biroq, Navoiy asarlaridagi tilning murakkabligi o'xshatishlar va o'sha davrga xos bo'lgan milliy tushunchalar tarjimondan katta mahorat talab qiladi.

Ushbu ishning maqsadi – Navoiy asarlarini tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilishdir. Taqdiqot davomida ma'no yo'qolishining oldini olish va muallifning o'ziga xos uslubini saqlab qolish masalalariga alohida to'xtalib o'tiladi.

Mazkur tadqiqotda nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik masalalari ham o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Alisher Navoiy asarlaridagi eskirgan so'zlar (arxaizmlar) va faqat bizning millatimizga xos bo'lgan realiyalar (urf-odatlar, buyumlar, tushunchalar) boshqa tillarda muqobili bo'lmagan taqdirda, ularni qanday qilib izohlash yoki o'girish masalasi tahlil qilinadi. Ish jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanib Navoiy g'azallari va dostonlarining mavjud tarjimalari asl nusxa bilan solishtiriladi. Bu orqali tarjimada yo'l qo'yilgan yutuqlar va kamchiliklar aniqlanadi.

Kutilayotgan natijalar. Tadqiqot yakunida Navoiy asarlarini ingliz va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilishda quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilgan:

Badiiy tasvir vositalarini (o'xshatish, istiora, mubolag'a) tarjima qilish bo'yicha yangi tavsiyalar ishlab chiqiladi;

Tarjimada milliy ruhni (koloritni) saqlab qolishning eng samarali usullari (izoh berish, ekvivalentni tanlash va b.) ko'rsatib o'tiladi;

Navoiy ijodini dunyo miqyosda targ'ib qilishda sifatli tarjimalarni ahamiyati isbotlanadi.



Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ilodi nafaqat turkiy xalqlar, balki butun bashariyatning ma'naviy boyligidir. Uning asarlari til, mazmun va badiiy jihatdan shunchalik murakkab va serqatlamki, ular boshqa tillarga o'girish jarayoni shunchaki bir tildan ikkinchi tilga so'z ko'chirish emas. Bu butun bir tarxiiy davrni, islomiy falsafani va shoirning nozik ruhini qayta kashf qilishdir. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar bugungi kunda navoiyshunoslikning eng og'riqli va ayni paytda eng qiziqarli yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Leksik qatlam va "eskirmas" so'zlar muammosi

Navoiy asarlari yozilgan chig'atoy tili o'z davrining eng yuksak cho'qqisi bo'lgan. Biroq, oradan o'tgan besh asrdan ziyod vaqt davomida tilimizda katta o'zgarishlar yuz berdi. Ko'plab so'zlar iste'moldan chiqdi yoki ularning semantik (ma'naviy) maydoni butunlay o'zgardi. Masalan, Navoiy qo'llagan "ko'ngil", "ishq", "ma'rifat", kabi so'zlar shunchaki hissiyot emas, balki chuqur tasavvufiy atamalardir. Tarjimon bu so'zlarni ingliz tiliga "love" yoki rus tiliga "lyubov" deb o'girsas, shoir ko'zda tutgan ilohiy ma'noning yarmi yo'qoladi.

Bundan tashqari, shoirning leksikonidagi arabiy va forsiy izofalar tarjimaga o'ta qiyinlik tug'diradi. Navoiy bitta so'zning bir necha ma'nosini bitta baytda (iyhom san'ati orqali) qo'llash ustasidir. Tarjimada esa bu ma'nolarning faqat bittasini tanlashga majbur bo'lamiz, natijada asarning "serqatlamligi" yo'qoladi.

Badiiy tasvir vaositari va ramzlar olami

Navoiy ramzlar shoiri. Uning ijodidagi "gul", "bulbul", "sham", "parvona", "may", va "soqiy" kabi obrazlar o'ziga xos simbolik lug'atni tashkil etadi. Malasan, g'arblik kitobxon uchun "may" (sharob) ichimlik sifatida ko'rinsa, Navoiy u "ishqi ilohiy" va "ma'rifat nuri"ni anglatadi. Tarjimon asarni shunchaki so'zma so'z o'girsas, o'quvchida shoirning ichkilikni madh etyotgani haqida noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tashbeh (o'xshatish) va isti'ora (metafora) san'atlarini olaylik. Navoiy inson go'zalligini tasvirlashda qo'llagan o'xshatishlar milliy mentalitet va o'sha davr estetikasiga asoslangan. Bularni boshqa tilga moslashtirishda "madaniy moslashuv" (adaptation) zarurati tug'iladi, ammo bu jarayonda matn o'zining asl "shirasi"ni yo'qotishi mumkin.

Vazn va she'riy shaklning "tutqich bermas" tabiati

Navoiy asarlarining aksariyat aruz vaznida yozilgan. Aruz tovushlarning cho'ziq va qisqaligiga asoslangan, o'ta musiqiy vazndir. Rus yoki ingliz tillari esa urg'u (sillabotonik) tizimiga asoslangan. She'riy tarjimada vazn va qofiani saqlab qolishga urinish ko'pincha shoirning chuqur falsafaviy fikrini (qurbon qilishga olib keladi).

Ko'pgina tarjimonlar nasriy tarjimani ma'qul ko'rishadi, chunki bu usulda mazmunni aniqroq berish mumkin. Lekin nasriy tarjimada Navoiyning sehrli ohangi, baytlarning bir-biriga zanjirdek bog'lanishi va lirik kayfiyati yo'qoladi. Navoiyni she'riyatdan ayirish bu uning ruhidan ayirish bilan barobardir.

Tasavvuf falsafasi va diniy kontekst

Shoir ijodini "Lison ut-tayr" yoki "Hayratul-abror" kabi asarlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu asarlar sof tasavvufiy asarlar bo'lib, ularning mag'zida Qur'oni Karim oyatlari, hadislar va avliyolar hayotiga ishoralar (talmehlar) yotadi. Tarjimon islom tarixini

tasavvufiy bosqichlarini (shariat, tariqat, haqiqat, ma'rifat) mukammal bilmasa, uning tarjimasi shunchaki yuzaki hikoya bo'lib qoladi.

Boshqa madaniyat vakillariga "Fano" (o'zligidan kechib Allohda foniylikka erishish) tushunchasini tushuntirish uchun ba'zan matnning o'zidan ko'proq izoh yozishga to'g'ri keladi. Ammo matn ostidagi ko'p sonli izohlar asarning badiiy oqimini to'xtatib qo'yishi, kitobxonning zavqini so'ndirishi mumkin.

Uslubiy murakkablik va tarjimon shaxsi

Navoiyning o'ziga xos "Navoiyona" uslubi bor bu nafosat, og'ir-vazminlik va badiiy mukammallik uyg'unligidir. Har bir tarjimon matnni o'z dunyoqarashi orqali o'tkazadi. Tarixda Navoiyni "evropalashtirish" ga ya'ni uning she'riyatiga g'arbiy romantizm ruhini kiritishga urinishlar bo'lgan. Bunday yondashuv asarning milliy ruhini so'ndiradi. Tarjimon o'z "men"ini orqa surib, Navoiyning ovozi eshittira olishi kerak.

Terminalogik va ilmiy aniqlik

Navoiyning falsafaviy asarlaridagi "nafs", "ruh", "aql", "qalb", kabi tushunchalar juda nozik ega. Ularni tarjima qilishda psixologik va falsafaviy terminologiyaning to'g'ri tanlanishi o'ta muhim no'to'g'ri tanlangan bitta so'z butun boshli tizimni buzib yuborishi mumkin. Shuningdek, asarlardagi tarixiy va geografik nomlar o'sha davr davlat boshqaruvi terminlarini (masalan: parvonachi, tavorichi, dargoh) tarjimada qandaay berish masalasi haamon muammo bo'lib qolmoqda. Masalan, "nafs"ni oddiy ehtiros emas, balki insonning botiniy dushmani sifatida talqin qilish shart. Shuningdek, "parvonachi" yoki "tavorichi" kabi davlat boshqaruvi terminlarini zamonaviy unvonlar bilan almashtirish tarixiy haqiqatni buzadi. "Dargoh" so'z esa bir vaqtning o'zida ham saroyni, hamilohiy maskanni anglatadi. Bunday terminalogik aniqlik Navoiy dahosini jahon kitobxoniga to'g'ri yetkazishda asosiy omil bo'lib qolmoqda. Tarjimon so'z ortidagi falsafaviy tizimni tushunmas ekan, asarning asl mohiyati yo'qoladi.

Xulosa: Navoiy va dunyo madaniyati

Xulosa qilib shuni aytamanki, Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilish bu cheksiz ummon tubidan dur izlashdek gap. Har bir yangi tarjima Navoiy olamining yangi qirrasini ochib beradi. Garchi barcha badiiy va falsafaviy elementlarni bir tilda mujassam etish imkonsizdek ko'rinsa-da, bu yo'ldagi izlanishlar milliy adabiyotimizni dunyoga tanitishning yagona yo'lidir. Tarjimon nafaqat ikki tilni biluvchi mutaxassis, balki Navoiyning qalbini tushunuvchiiijodkor bo'lishi lozim. Faqat shundagina buyuk shoirning "olamshumul" fikrlari tillar va chegaralar osha yashashga davom etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 jildlik). — Toshkent: Fan, 1987-2002.
2. I. Haqqulov. Navoiyga qaytish. — Toshkent: Fan, 2007. (Tasavvufiy tushunchalar va nafs talqini uchun).
3. Q. Yo'ldoshev. Yonayotgan so'z. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. (Badiiy uslub va ohang masalalari).



4. A. Abdug'afurov. Navoiy ijodida satira. — Toshkent: Fan, 1972. (Ijtimoiy terminlar va unvonlar tahlili).
5. G. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1983. (Lisoniy va madaniy ekvivalentlik muammolari).
6. E. Ochilov. Tarjima san'ati va Navoiy merosi. — Toshkent: Sharq, 2012. (Terminologik aniqlik va xorijiy tarjimalar qiyosiy tahlili).
Manzil: Toshkent shahar Kichik halqa yo'li ko'chasi 6A-uy